

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TASHKIL ETISHNING YANGI MODEL YARATISHNI AHAMIYATI

Termiz davlat pedagogika instituti

Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası

*o'qituvchisi **Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana**,*

Geografiya ta'lim yo'nalishi

3- bosqich talabasi

Mamarajabov Azizbek Jo'raqul o'g'li

Kalit so'zlar: Sog'lik, shifokor, qishloq vrachlik punktlari, salomatlik, JSST, Sug'urta, Soliq, Yuridik va jismoniy shaxs, reproduktiv salomatlik, kasallik, epidemiya, aholi, tibbiy xizmat, tez tibbiy yordam, ekologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi islohatlar qanday moliyalashtirishi hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog'liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash tizimi islohoti, tibbiy ta'lim, sog'liqni saqlash infratuzilmasi, telemeditsina, profilaktika va sog'lomlashtirish, xalqaro hamkorlik

Abstract: This article provides information on how Uzbekistan's health care reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.

Key words: healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы. Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества. Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Inson hayotidan bebaho ne'mat yo'q. Shu bois, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish Prezidentimizning doimiy diqqat markazidagi masalalardan bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-noyabrda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aholining budjet mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda sifatli tibbiy yordam olishini kafolatlaydi. Unga ko'ra, Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari 2021-yil 1-iyuldan tajriba-sinov tariqasida Sirdaryo viloyatida boshlandi. O'tgan davrda bu borada qator ishlar bajarildi. Avvalo, kasalliklarning oldini olish, ularni erta aniqlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va ko'lamini oshirishga erishildi. Yangi tizimda tibbiy xizmat ko'rsatishning har bir darajasida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi ishlab chiqildi. Mazkur paketlar birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va shifoxonalarda O'zbekiston fuqarolariga hamda yurtimizda doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etilmoqda. Oilaviy shifokor har bir muassasa turi bo'yicha tibbiy xizmat hajmi va klinik protokolga muvofiq, tor soha mutaxassislariga va zarur hollarda tuman, viloyat hamda respublika darajasidagi shifoxonalarga yo'llanma beradi. Oilaviy shifokor yo'llanmasi olinmagan hollarda, shuningdek, kafolatlangan paketga kiritilmagan tibbiy xizmatlar pullik asosda ko'rsatiladi. Oilaviy shifokor aholining sog'lig'i bilan bog'liq ko'rsatkichlarni monitoring qilish, kasallik tarixini yuritish, dori vositalari uchun retsept yozish va kafolatlangan paketga muvofiq tibbiyot muassasalariga yo'naltirishni yagona elektron platforma orqali bajaradi. Bu esa bemor va tibbiyot xodimlari o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'plab tushunmovchiliklarning oldini oladi hamda shaffoflikni ta'minlaydi. Yangi tizimning yana bir ijobiy jihati davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltiradi. Bu bilan davlat har bir fuqaroga o'zi xohlagan klinikada davolanishi, istagan shifokoridan tibbiy maslahat olishi uchun imkoniyat yaratmoqda. Zero, aholi uchun ishlab chiqilayotgan elektron dasturlar orqali kasallik bo'yicha qaysi shifo maskaniga murojaat qilish, shifokor qabuliga yozilish, buyurilgan dorilarni topish kabi masalalarga ham oson yechim topiladi. Eng muhimi, amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlardan, yaratiladigan qulayliklardan aholi beminnat bahramand bo'ladi. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish 2021 yildan Sirdaryo viloyatida tajriba-sinov tariqasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, uning ikkinchi bosqichi 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida, uchinchi bosqichi esa 2025-yildan yurtimizning barcha hududida joriy etiladi. Shu bilan mamlakatimizda barcha aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishda oshkoralik, adolat va shaffoflik tamoyillari asosida zamonaviy talablarga javob beradigan samarali xizmat ko'rsatish tizimini

shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda esa davlatimiz rahbarining 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatga asosan o‘tgan yilning 1 oktabridan davlat budjeti mablag‘lari evaziga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga 14 ta tibbiyot muassasasi o‘tkazilgan bo‘lsa, bularga joriy yilning 1 oktabridan yana 12 ta tibbiyot muassasasi qo‘shildi.

Ushbu muassasalar qatorida Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Akademik Yo.To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Bolalar milliy tibbiyot markazi va boshqa shifo maskanlari bor. Joriy yildan ular qatoriga Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasi, Toshkent davlat stomatologiya instituti klinikasi, Orolbo‘yi mintaqasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kabilar ham qo‘shildi. Mazkur tibbiyot muassasalarida imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga ko‘rsatilgan yuqori texnologik tibbiy yordam uchun sarflangan harajat Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan qoplab beriladi va bemorlarga tekin tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida moliyalashtirishning yangi mexanizmi asosida bemorlarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimidan foydalaniladi. Shu tariqa bemorlar kasalligiga muvofiq ixtisoslashtirilgan muassasalarda davolanishini ta‘minlaydigan yo‘llanma beriladi.

Mazkur yo‘llanma axborot tizimida avtomatik shakllantiriladi va davlat yoki nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini beradi. Bemor davolanganidan so‘ng Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bemorni davolagan muassasaga bazaviy narxlar doirasida ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlarni asoslovchi hujjatlarga muvofiq sarflangan xarajatni to‘lab beradi. Bundan tashqari, 52 ta hududiy tibbiyot muassasasi bemorlarga o‘z yashash hududida yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ya‘ni bemorlarni Toshkent shahriga kelib ovora bo‘lishiga hojat qolmadi, bu bilan ham vaqt, ham mablag‘ tejalandi. Eng muhimi, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar tibbiy xizmat ko‘rsatadigan davlat yoki nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tanlash huquqiga ega bo‘lmoqda. Bunda bemor tibbiyot muassasasini Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan shartnoma tuzganlar orasidan o‘ziga qulayini tanlay oladi. Joriy yilning o‘tgan davrida Sog‘liqni saqlash vazirligi tavsiyasiga asosan Toshkent shahri va viloyatlardagi 28 ta xususiy klinika bilan shartnoma tuzildi. Ana shu shartnomalarga ko‘ra, imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga ko‘rsatilgan yuqori texnologik tibbiy yordam xarajati davlat budjeti mablag‘i hisobidan Davlat tibbiy

sug'urtasi jamg'armasi orqali qoplab berildi. Joriy yilning 9 oyida 38 ming nafardan ortiq bemorga 301 mlrd. so'mlik tibbiy xizmat ko'rsatildi. Jumladan, hududiy tibbiyot muassasalarida davolanganlar soni qariyb 3 ming, xususiy klinikalarda esa sal kam 230 nafar bemor davolangan. Ularning 51 foizini 18 yoshgacha, 26 foizini 18 dan 60 yoshgacha, 23 foizini esa pensiya yoshidagilar tashkil etdi. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan QR-kodli elektron yo'llanmaga ega bo'lgan bemorlarga yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatiladi. Tegishli me'yoriy hujjatlarga ko'ra, elektron yo'llanmaga bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, chin yetimlar, I- va II-guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, 1941-1945 yillardagi urush oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar va uning qatnashchilari, Baynalmilalchi-jangchilar, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalarning a'zolari, Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha 18 yoshga to'lmagan patologiyali bolalar va boshqalar ega bo'ladi. Yo'llanmani berayotgan oilaviy shifokor bemordagi o'zgarishlarni, kasallik belgilarini aniq ifodalovchi tashhisni XKT-10 bo'yicha klinik protokollar va standartlarga mos ravishda qo'yishi kerak. Bu yo'llanmani olgan tibbiyot muassasasi bemorni shu tashhis bo'yicha davolaydi va dalolatnomalarni jamg'armaga taqdim etadi. Jamg'arma mutaxassislari dalolatnomalarni ya'ni davo muolajalari to'g'ri tanlangani, xizmatlar bazaviy narxlar doirasida ko'rsatilganini o'rganib, so'ngra tibbiyot muassasasi hisobraqamiga to'lovni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi orqali aholining barcha qatlamlari tibbiy xizmatlar bilan qamrab olinadi. Tibbiy sug'urta shunday imkoniyatki, unda nafaqat sifatli tibbiy xizmat ko'rsatiladi, balki tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanishiga, bemorlar uchun qulay sharoitlar yaratilishiga, kadrlar ta'minoti yaxshilanishiga, tibbiyotni raqamlashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Aslida ham inson qadri va xalq manfaati ulug'lanadigan yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohotda aholi ehtiyojlari hisobga olingan. Asosiy maqsad ham aholining moliyaviy qiyinchilikka duch kelmay, zarur tibbiy yordam olishini ta'minlash, el salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Prezidentimizning "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq viloyatimizda davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tajriba-sinov loyihasi doirasida joriy qilindi. Buning uchun davlat budjetidan maqsadli mablag'lar ajratildi. Hozirgi kunda viloyatimizda aholiga sifatli va malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish borasidagi tizimli ishlar jadal olib borilmoqda. Davlat tibbiy sug'urtasi

jamg'armasi aholiga kafolatlangan paket doirasida bepul va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdir.

—Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish, boshqarish hamda shu sohada yagona davlat siyosatini joriy etishda tashkilotlararo hamkorlikni ta'minlash;

— aholining barcha qatlamlarini kafolatlangan paket doirasida sifatli va zarur tibbiy yordam bilan ta'minlash maqsadida tibbiy xizmatlar strategik xaridi tizimini joriy etish;

— tajriba — sinov loyihasi doirasida Davlat byudjetidan kafolatlangan paketni moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan mablag'larni jamlash, boshqarish, ularning maqsadli va samarali sarflanishini tashkil etish;

—tajriba-sinov loyhasining natijalariga ko'ra, Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini respublikaning boshqa xududlarida bosqichma — bosqich joriy etish bo'yicha zarur chora — tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar kiradi.

Davlat tibbiy sug'urtasining asosiy talablaridan biri bu aholini tibbiyot muassasiga biriktirish hisoblanadi. Viloyatimizda 1776 nafar tibbiyot xodimlaridan iborat 421ta "Tibbiyot brigadalari" tashkil etilgan bo'lib, ular aholining 94,3 foizini xatlovdan o'tkazib bo'lishdi. Har bir brigadaga oila shifokori, amaliyot hamshirasi, doya va ikkita patronaj hamshirasi biriktirilgan. Pirovardida viloyatimizning 236 ta mahallasini to'liq qamrab oldik. "Mis uz" elektron dasturi orqali aholi har bir tibbiyot brigadasining umumiy amaliyot shifokoriga biriktirildi. Tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining birlamchi bo'g'in muassasalariga biriktirilgan aholi soniga qarab "jon boshiga" moliyalashtirish tizimi yo'lga qo'yildi. Aholi o'zining biriktirilgan hududidagi tibbiyot muassasasiga (oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari) murojaat qilganda, kafolatlangan paket doirasida tibbiy xizmat va dori vositalari bilan bepul ta'minlanmokda. Kafolatlangan paket doirasida oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda shifokor qabuli, konsultatsiyasi bilan birgalikda profilaktik tadbirlar, 12 turdagi instrumental diagnostik, 12 turdagi laborator tekshiruvlar, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda 19 turdagi diagnostik hamda 16 turdagi laborator tekshiruvlar, tuman va shahar markaziy shifoxonalarida tibbiy xizmatlar turiga ko'ra shoshilinch va tez tibbiy yordam, tug'ruqqa ko'maklashish, terapevtik, jarrohlik, pediatriya va yukumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlari hamda klinik protokollari asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Davlat tibbiy sug'urtasini joriy etish maqsadida amalga oshirilayotgan bu kabi talablar o'z vaqtida bajarilsa, shifokorlar malakasini oshirish va bemorlarga yanada sifatli xizmat ko'rsatishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-ro'yxat , 82-yig'ma jild, 11-varaq.

2. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv uslubiy qo‘llanma –Toshkent: O‘zbekiston, 2012- B 89.
3. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet. 3 O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M372-fond, 1-ro‘yxat , 82-yig‘ma jild, 11-varaq.
4. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv uslubiy qo‘llanma –Toshkent: O‘zbekiston, 2012- B 89. 4. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi hisobotlari. 2010 yil. – B.15
6. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi